

## ALISHER NAVOIY IJODIDA BADIY SAN'ATLAR

*Sultonova Dildora Halim qizi*

*O'zbekiston Jaxon tillar Universiteti,  
Mustaqil tadqiqotchi talaba, Toshkent*

E-mail: [dildora750@gmail.com](mailto:dildora750@gmail.com)

Tel: 91-986-21-51

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Alisher Navoiy ijodida qo'llanilgan badiiy san'atlar, ularning turlari, usullari va ifoda shakli haqida bo'lib, unda g'azalda foydalanilgan she'riy san'atlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari, g'azallardan namunalar ham keltirilgan va tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** takrir, analogiya, o'xshatish, metafora, metonomiya, snekdoxa, talmeh, tanosub.

**Abstract:** This article is about the artistic arts used in the work of Alisher Navoi, their types, methods and forms of expression, and provides information about the poetic arts used in the ghazal. In addition, examples of ghazals are also presented and analyzed.

**Keywords:** repetition, analogy, simile, metaphor, metonymy, synecdoche, alliteration.

**Аннотация:** В статье рассматриваются художественные приёмы, использованные в творчестве Алишера Навои, их виды, способы и формы выражения, а также даются сведения о поэтических приёмах, использованных в газели. Кроме того, приводятся и анализируются примеры из газелей.

**Ключевые слова:** повтор, аналогия, сравнение, метафора, метонимия, снecкдохa, тaлмe, тaнocуб.

Gʻazal mulkining sultoni hisoblangan Alisher Navoiyning gʻazallari jozibadorligi va oʻziga xosligi bilan boshqalarnikidan ajralib turadi. Shoir sheʼriyatida maʼno koʻchimlarini qoʻllash va yaratish mahorati yorqin kuzatiladi. Gʻazallarda muallif tomonidan toʻgʻri tanlangan vositalar oʻziga xos maʼno nozikliklariga ega boʻladi. Tilimizdagi bir qator soʻz va iboralarning emotsional-ekspressiv xususiyatiga ega boʻlishi ularning sheʼriyatda metaforik vosita sifatida ishtirok etishiga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun Alisher Navoiy tomonidan maʼlum bir uslubiy maqsadda tanlangan xalqchil birikmalar, metaforik tasvirlar, fikrlarning kitobxon tomonidan tez va toʻgʻri tushunilishini taʼminlashdan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi.

Keling, gʻazallardan namunalar koʻrib oʻtamiz:

**Sacrificing an eye, not staring at world's people write a letter I would,**

**It is only this instant, my tears turn into ink, into inkpot my eyes would.**

Tarjimada “eye” soʻzining takroridan “repetition” – “takrir”, “would” soʻzining misra oxirida takrorlanishidan “epiphora”, “my tears turn into ink, into inkpot my eyes” jumlasini orqali **“analogy”** – “analogiya” yaʼni “tashbeh” sanʼatlari yaratilmoqda. Bu bayt ham boshqalaridek “mubolagʻa” – “hyperbole” sanʼati asosiga qurilgan. Tarjimon Navoiy foydalangan “tashbeh” sanʼatini oʻz tarjimasida yaqqol aks ettirib bergan. “Tashbeh” sanʼati ingliz tilida “analogy” stilistik vositasi bilan ekvivalent boʻla oladi. “Analogy is a comparison of two otherwise unlike things based on resemblance of a particular aspect”<sup>1</sup>. Misra tarjimasida koʻz yoshlari siyohga, koʻzlar esa siyohdonga oʻxshatilyapti. Tarjimon tarjimada maʼnoni bera olgan, badiiy sanʼatni toʻgʻri ifodalay olgan hamda oʻz maqsadiga erisha olgan.

<sup>1</sup> <https://www.merriam-webster.com/dictionary/analogy>

Keyingi bayt:

**Tilar ko‘nglum qushi anqodin o‘tsam nari yuz vodiylar,**

**Munungdek sayr etarga qofdin ortuq sabotim bor.**

*Ko‘nglim qushi Anqodan yuz vodiylar ilgarilab uchishimni xohlaydi, bunchalik sayr etish uchun Qof tog‘idan ham mustahkam sabotim bor!*

Ma’lumki, Anqo nomi boru o‘zi yo‘q qush bo‘lib, afsonalarga qaraganda uning makoni Qof tog‘idadir. Shoir bu o‘rinda kimsasizlikni izlab, Anqo yashagan Qof tog‘idan ham yuz vodiylar ilgarilab ketmoqchi. Buning uchun esa uning Qof tog‘idan ham yuksak va chidamliroq saboti yo‘ldoshdir<sup>2</sup>.

Baytda “Anqo va Qof” so‘zlari orqali “talmeh va tanosub”, “ko‘ngil qushi” birikmasi va “ko‘ngilning sayr etishi” holati orqali esa “**metonimiya**” san’atlariga murojaat etilmoqda.

Ingliz tilidagi tarjimasi:

**The bird of my soul was to bypass Anqo bird a hundred valleys,**

**For such wandering have more firmness more than the Qof I would.**

Tarjimada “the Qof I would” jumlasini orqali “anastrophe” (unusual grammatical order), “The bird of my soul” va “firmness more than the Qof” so‘z birikmalari orqali “**metonymy**” san’atlari ifodalangan. Asliyat va tarjima orasida badiiy san’atlardan foydalanishda qisman yaqinlik bo‘lsada, g‘azal ma’nosi butunlay ochib berilgan.

So‘nggi bayt:

**Navoiy, bilki shah ko‘ngli manga qayd o‘lmasa, billah,**

**Agar, kavnayng‘a xoshok chog‘lig‘ iltifotim bor.**

<sup>2</sup> Ibrohim Haqqul. “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y. – B – 43-46.

*Navoiy, menga shohning ko‘ngli bog‘lanmasa, (nima bo‘libdi), ikki dunyoga xoshokday iltifot ko‘rsatmayman-ku!*

Maqta‘da Navoiy shohning ko‘ngli unga mayl etmaganligidan nolinganday bo‘ladi. Lekin shu zahotiy oq bu fikridan qaytib, ikki jahonga iltifotsizligini izhor qiladi.

Baytda “kavnayng‘a xoshok chog‘lig‘ iltifotim bor” jumlasini orqali “mubolag‘a” hamda “o‘xshatish” san‘atiga murojaat etilmoqda. “O‘xshatish - ikki narsa yoki voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berishdan iborat badiiy tasvir vositasi, ko‘chimning sodda turidir”<sup>3</sup>.

Ingliz tilidagi tarjimasi:

**Navoi, know if shah’s soul isn’t kind to me, be it would,**

**I would treat him as a hay in two worlds, see you would.**

Tarjimada “would” so‘zining misra oxirida takrorlanishidan “epiphora”, “as a hay” (xoshokday) jumlasini orqali esa “**simile**” badiiy san‘atlari yaratilmoqda. Lug‘atda bu san‘atga quyidagicha ta’rif berilgan: “The easiest stylistic device to identify is a [simile](https://en.wikipedia.org/wiki/Simile), signaled by the use of the words “like” or “as”. A simile is a comparison used to attract the reader's attention and describe something in descriptive terms”<sup>4</sup>. Demak, bundan xulosa shuki, “as” va “like” kabi so‘zlar bilan ifodalangan badiiy san‘at “simile” deb nomlanar ekan. Bu baytda g‘azalning asli va tarjimasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ham ma’no jihatdan, ham shaklan ko‘rishimiz mumkin ekan.

<sup>3</sup> <https://uz.wiktionary.org/wiki/o‘xshatish>.

<sup>4</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic\\_device](https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic_device).

O‘xshashlikka asoslangan badiiy san’atning bu turlarini (tashbeh, metafora, metonomiya, sinekdoxa) Navoiyning faqat yuqoridagi g‘azalida emas, balki boshqa g‘azallarida, baytlarida va misralarida ham uchratishimiz mumkin.

Keyingi bayt:

**Istamankim, ishq mendin o‘zgani qilg‘ay asir,**

**Hech kishiga bo‘lmasun, yo Rab, manga bo‘lg‘an balo.**

*Ishq meni asir qilishini istamayman, menga kelgan balo hech kimga kelmasin ilohim)!*

Bu baytdan ma’lum bo‘layaptiki, g‘azal qahramoniga balo ishq tufayli kelgan. Lekin u boshqalarning o‘zi kabi ishqqa asir va natijada baloga muhtalo bo‘lishlarini xohlamayapti<sup>5</sup>.

Baytda “tashxis” va “yo Rab” undalmasi orqali “iltifot” san’atlariga murojaat etilmoqda. Ammo tarjimada biz “simile” stilistik vositasini uchratishimiz mumkin. Bu san’at “nobody suffers like me” jumlasini orqali ifodalangan bo‘lib, “manga bo‘lgan balo” “manga o‘xshab hech kim azoblanmasin” deya e’tirof etilgan.

Ingliz tilidagi tarjimasi:

**I don’t want love to captivate anyone other than me.  
God, let nobody suffers like me from troubles of evil!**

Keyingi bayt:

**Shod yuzlanmang balolar bizga kim bo‘lmas xalos,**

**Bu ko‘ngul zindoni ichra muhtalo bo‘lg‘an balo.**

<sup>5</sup> Jumayev N. “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y. – B – 47-57.



*Ey balolar, (uning ko‘ngli va jonini qiynayapmiz deb) hursand bo‘lmangki, bu ko‘ngil zindoniga (tushib) muhtalo bo‘lgan balolar, (bizdan) xalos bo‘lmaydi!*

Baloga muhtalo bo‘lgan kishining o‘sib-unmasligi aniq. Lekin bu ahvolga soldim, deb hursand bo‘lmanglarki, ko‘nglim zindon kabi chuqur va g‘amu anduhlardan qorong‘ulashib ketgan. Shuning uchun, sizlar ham, ey balolar, u yerda o‘zlaringizni zindonband maxbuslarday his etasiz va bu azoblardan hech qachon xalos bo‘lmaysiz, deb kinoya qilmoqda shoir o‘zini azob-iztirobga solgan balolarga qarata. Aytilgan fikrda nozik kinoya yana yuz ko‘rsatmoqda. Asli balodan ozurda bo‘lgan shoir balolarning o‘zi mening ko‘nglimga kelsa, zindonga tushganday bo‘ladi, demoqda<sup>6</sup>.

Baytda “tashxis” hamda “balo” so‘zining takroridan esa “takrirning radd ul-hashv ilal ajuz” (birinchi misra o‘rtasidagi so‘zning bayt oxirida kelishi) turi hosil qilinmoqda. Shuningdek, o‘xshatishning “**metonimiya**” turi “ko‘ngul zindoni” so‘zi orqali qo‘llanilgan. Tarjimada ham bu san‘at aks ettirilgan va “souls’ dungeon” so‘zi orqali ifodalangan.

Ingliz tilidagi tarjimasi:

**Don’t be happy hey evils who have encountered us,  
For any detained by my souls’ dungeon is an evil.**

Keyingi bayt:

**Tutashti sham’dek har barmog‘im hijron sharoridin,**

**Ilig marham qo‘yay deb chun ko‘ngul chokiga yetkurdum.**

*Har bir barmog‘im hijron uchqunida shamdek tutushayapti, ko‘ngilning chok-chok so‘tilgan joyiga malham qo‘yish uchun iligdan foydalandim.*

<sup>6</sup> Shu manba 53-bet.

Endi shoir o‘z barmoqlarini lovullab turgan otash-alanga “tillari”ga, iligini unga yog‘ “etkazib beruvchi pilik”ka o‘xshatmoqda. Va bu pilikni yurakning chokini ulush uchun yetkazib berganligini izhor etmoqda<sup>7</sup>.

Navbatdagi baytda shoir “tamsil” san’atidan foydalangan holda shamning piligini uning tubigacha borishi va tepaga chiqib yonib turishiga ishora qilayapti. Go‘yo iligni malham qilish uchun yurakning chok bo‘lgan tubiga yetkazish maqsadida har biri uchqun bo‘lib yonayotgan barmoqlardan foydalangan. Baytda kuchli “mubolag‘a – g‘uluvv”ni ko‘rsatib o‘tgan. Shuningdek, “**o‘xshatish**” badiiy san’atini ham “tutashti shamdek” jumlasini orqali yaqqol anglash mumkin. Agar tarjima bilan solishtiradigan bo‘lsak, tarjimon ham xuddi shu san’atlarni qo‘llagan. Tarjimada “hyperbole” hamda “as a candle” jumlasini orqali “**simile**” stilistik vositalarini uchrata olamiz. Tarjimada shakl ham, ma’no ham g‘azalning asliyati bilan bir xil. Tarjimon o‘z ishini uddalay olgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tahlillardan ko‘rishimiz mumkinki, g‘azallarda juda ko‘p badiiy san’atlardan foydalanilgan, shu qatorda o‘xshashlikka asoslangan she’riy san’atlar: “tashbeh”, “metafora”, “metonimiya” va “sinekdoxa” kabilarni ham ko‘rishimiz mumkin. Bu san’atlarni tarjima bilan qiyoslaganimizda, ba’zi o‘rinlarda san’atlar orasidagi o‘xshashlikni, ba’zi o‘rinlarda esa ularning ekvivalentidan foydalanganlik hamda ma’lum bir o‘rinlarda tashlab ketilganligini ham guvohi bo‘ldik. Ammo bir narsani tan olib aytish kerakki, har qanday holatda ham g‘azal tarjimasi va asliyati orasida ma’no jihatdan yakdillikni, o‘zaro mutanosiblikni hamda mushtaraklikni angladik. Bu esa tarjimonning mahorati va o‘z kasbining ustaligidan dalolatdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. “Xazoyinul-maoniy”, III tom, 703-bet.

<sup>7</sup> Yusupova D. . “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y. – B – 32-40.

2. Ibrohim Haqqul. “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y.  
– B – 43-46.
3. Jumayev N. “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y. – B –  
47-57.
4. Yusupova D. . “Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar”. - Toshkent, 20017-y. –  
B – 32-40.
5. [https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic\\_device](https://en.wikipedia.org/wiki/Stylistic_device).

